

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Raximov Zafar Odilovich

Kulnazarova Zamira Baxromovna

Berdimurodov Aziz Shukrillovich

**MEHMONXONA INTERERI
VA LANDSHAFTI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

SAMARQAND 2022

UO'K: 747:728.51(075)

R 28

KBK: 85.128ya7

65.432

Raximov Z.O., Kulnazarova Z.B., Berdimurodov A.Sh.
Mehmonxona intereri va landshafti. /Darslik/. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashryot-matbaa ijodiy bo’limi, 2022 - 270 bet.

Darslik “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Darslikda mehmonxonalar rivojlanishida interer va landshaft to‘g‘risidagi tushunchalarning mazmun mohiyati, mehmonxona intereri va landshaftining tarixiy uslublari, mehmonxona intereri va landshaftini yaratishda ergonomik talablar, mehmonxonalarda zamonaviy interer uslublari, mehmonxonalarda landshaft dizaynining asosiy uslublari, mehmonxona landshaftini yaratishga oid masalalarni qamrab oladi.

Mazkur darslikdan oliy o‘quv yurtlarida turizm bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, magistrlar va turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

Textbook is designed for students majoring in «Organization and management of the hotel industry». The textbook reveals the content of the concepts of interior and landscape in the development of hotels, historical styles of hotel interiors and landscapes, ergonomic requirements for the creation of hotel interiors and landscapes, modern interior styles in hotels, basic methods of landscape design in hotels, hotel landscape design.

This textbook can be used by students, undergraduates studying in higher educational institutions for tourism and specialists working in the field of tourism.

Taqrizchilar:

B.Sh. Safarov – SamDU professori, i. f. d.

N.E. Ibadullayev – SamISI dotsenti, i. f. n.

ISBN: 978-9943-8935-4-2

© Z.O. Raximov, Z.B.Kulnazarova, A.Sh.Berdimurodov, 2022.

© “STEP-SEL” MChJ nashryot-matbaa ijodiy bo’limi. 2022

KIRISH

Hozirgi kunda turizmning, nafaqat, tarixiy yoki an'anaviy, balki, yangidan-yangi turlari, shakl hamda ko'rinishlari vujudga kelmoqdaki, bu yangi tendensiyalar mazkur sohani valyuta kirib keluvchi manba sifatidagina emas, mintaqaviy rivojlanishning asosiy faktorlaridan biri deb qabul qilinishiga olib kelmoqda. Bu esa globallashuv davrida vaqt o'tishi bilan sohaning yangicha ko'rinishlari va sifat ko'rsatkichlari yuzaga kelishiga sabab bo'lib, uni muntazam kuzatib borish, sohada faoliyat olib boruvchilar bilan bir qatorda, turizm iste'molchilarining ham dam olish davomidagi jarayonda ma'lum hudud qonuniyatlariga rioya qilish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, yoinki, madaniyatli bo'lishni, foydalanilayotgan va ko'rib zavq olinayotgan barcha resurslarni kelajak avlodga bus-butun yetkazish maqsadida dam olish madaniyatiga rioya qilish bugungi kun turizmidagi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil chop etilgan "Yangi O'zbekiston strategisi" nomli asarida, "Turizm – O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri" – deb ta'kidladilar¹.

O'zbekistonning etakchi ekspert va tahlilchilarning kuchli tavsiyalariga ko'ra, yangi mehmonxona va mehmonxona majmualari qurilishini rejalashtirishda muayyan qoidalarga rioya qilish zarur. Rejalashtirish va dizaynning dastlabki bosqichida kelajakdagi ob'ektning geografik joylashuvi, jozibadorligi, uning o'ziga hosligi va kelajakdagi mehmonxona formatiga muvofiq barcha zarur talablarni belgilashi mumkin bo'lgan mehmonxonani yaratishi kerak.

Mehmonxona loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda G'arb mutaxassislari katta amaliy tajribaga ega ekani sir emas. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish loyiha qoplamasi va keyingi moliyaviy daromadlarning noyob natijasiga erishish imkonini beradi. Biroq, O'zbekiston standartlari va huquqiy talablar bilan juda yaxshi tanish bo'lgan mahalliy mutaxassislarning ishtiroki ham talab qilinadi. Bu esa xorijlik va O'zbekistonlik mutaxassislarning bir turdagi ish faoliyatini talab qiladi. Bunday vaziyatda har bir ishtirokchi tomonning bir-biriga bo'lgan shijoatli munosabati bilan bog'liq muayyan qiyinchiliklar mavjud. Bunday holda, chet ellik mutaxassisni tanlash va uning tavsiyasiga ko'ra, chet ellik mehmon butun loyihani samarali amalga oshirishi mumkin bo'lgan mahalliy ekspertni tanlash tavsiya etiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – 464 б.

Darslikning maqsadi – turizm sohasi rivojlanishida mehmonxonalar jozibadorligini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida mehmonxona intereri va landshaftining nazariy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

“Mehmonxona intereri va landshafti” fani oliy ta'lim muassasalarida “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mutaxassislik fani bo'lib hisoblanadi.

Mazkur Darslik o'zida shunday mavzularni mujassam etadiki, ular yordamida mavjud va yangi paydo bo'layotgan mehmonxonadarning zamonaviy va milliy ko'rinishdagi intererlari bilan birgalikda landshaft arxitekturasi shakllantirish orqali mehmonxonalar jozibadorligini, shinamligini oshirish tufayli turistlar ko'lamini ko'paytirishni hamda turizm xizmatlar bozorida mehmonxona raqobatbardoshligini ta'minlashning nazariy jihatlarini o'rganish mumkin bo'ladi.

Darslik mehmonxonalar rivojlanishida interer va landshaft to'g'risidagi tushunchalarning mazmun mohiyati, mehmonxona intereri va landshaftining tarixiy uslublari, mehmonxona intereri va landshaftini yaratishda ergonomik talablar, mehmonxonalarda zamonaviy interer uslublari, mehmonxonalarda landshaft dizaynining asosiy uslublari, mehmonxona landshaftini yaratishga oid masalalarni qamrab oladi.

Ushbu darslik turizm faoliyati bo'yicha ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlari talabalariga, magistrilaruga, turizm texnikumlari talabalariga va shu sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislariga mehmonxonalar rivojlanishida interer va landshaft bo'yicha chuqur bilim olishlariga yaqindan yordam beradi degan fikirdamiz.

I BOB. MEHMONXONA INTERERI VA LANDSHAFTI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1-§. “Mehmonxona intereri va landshafti” fanining maqsad va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Zamonaviy O‘zbekistonda mehmonxona va restoran majmuasi turizm sohaning muhim elementi hisoblanib, u davlat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mehmondo‘stlik sohasi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar salomatlikni yaxshilash, nafaqat moddiy, balki kishilarning ma‘naviy-psixologik qo‘layliklarini ta‘minlash, estetik ehtiyojlarini qondirish vositasidir. Mehmonxona va restoran biznesi sohasidagi etakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislar zamonaviy sharoitda mehmondo‘stlik sohasidagi faoliyatning eng oliy maqsadi, birinchi navbatda, mijozning ehtiyojlarini qondirish va shundagina-o‘z korxonalarini daromadini oshirish ekanini ta‘kidlamog‘da. Korxonalarining barcha tashkiliy darajalari mijozlarni aniqlash jarayonida ishtirok etishi va bu umidlarni nafaqat qondirish, balki ulardan ham oshib o‘tish yo‘llarini topishi kerak. Mijozning ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘p qirrali vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun turli xil professional bilimlarni egallash kerak. Mehmondo‘stlik sohasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar iste‘molchiga – mijozga, mehmonga to‘liq e‘tibor qaratishlari lozim. Xususan, zamonaviy mutaxassis korxonaning ish uslubini, tovar va xizmatlar iste‘mol bozoridagi xatti-harakat strategiyasining ilmiy asosini bilishi, raqobatbardosh korporativ uslubni shakllantira olishi, o‘ziga xos sharoitlarda uning elementlaridan mohirona foydalana olishi, korxonaning ichki tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlarini aniq bilishi kerak.

Shunday qilib, estetik funksiyalardan tashqari, ichki xizmat uchun optimal sharoitlarni ta‘minlaydi, korporativ madaniyat darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi va moddiy va ma‘naviy jihatdan qulaylik yaratadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo‘shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisida band bo‘lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo‘qolib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalarini mijozlarga xizmat ko‘rsatish saviyasini, nomerlarning